

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>X.Sh.Nomozov</b>	
Internet-makon mohiyati, genezisi va zamonaviy tarkibi.....	328
<b>U.R.Sobirova</b>	
Huquq falsafasining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati .....	332
<b>A.Ch.Abdiyev, B.I.Xolyorova</b>	
Ziyorat turizmi sohasida O'zbekistonning o'rni va imkoniyatlari .....	335
<b>I.Rizayev</b>	
Sinergetika: ijtimoiy tizimni tadqiq qilishdagi muammo va imkoniyatlar.....	339
<b>R Mardonov</b>	
Sharq va g'arb ta'lim falsafalarining o'zaro ta'siriga asoslangan madaniyatlararo muloqot .....	346
<b>N.X.Xakimov B.A.Nabiyev</b>	
O'rta osiyoda hozirgi ekloviy muammolar va transfor suvdan foydalanish muammolari.....	350
<b>X.Samatov</b>	
Tasavvufda tariqat a'zolarining jamoadan alohidalanishi (ijtimoiy falsafiy tahlil) .....	358
<b>H.Muhamadiyev</b>	
Virtuallik yangi falsafiy kategoriya sifatida .....	365
<b>D.B.Sharipov</b>	
Tinchlikni ta'minlashning innovasion omillari .....	370
<b>X.R.Xolidaxon</b>	
Xoja Ahror Valiy qarashlarida ilohiy muhabbat tushunchasining falsafiy tahlili.....	374

---

#### SIYOSAT

<b>A.Z.Ismayilov</b>	
Huquqiy ong tizimida huquqiy davlatchilik g'oyalari .....	378
<b>J.Sultonov</b>	
Markaziy Osiyo chegara muammolari yechimini konstruktivizm nazariyasi yordamida tahlil qilish .....	384

---

#### TARIX

<b>B.Usmonov, D.A.Madalimov</b>	
Temurning hayoti va shaxsiy fazilatlari Uilyam Devi hamda Jozef Uayt talqinida .....	392
<b>M.Sh.Muzaffarjon</b>	
O'zbekistonda turizmning vujudga kelishi tarixi (XX asrning 20-30-yillari) .....	397
<b>B.M.Abdullayev</b>	
Farg'ona vodiysi qadim madaniyatlarining so'ngi bronza va ilk temir davrlari shaharsozligining shakllanishi hamda rivojlanishidagi o'rni va roli .....	405
<b>N.V.Karimova</b>	
Farg'ona vodiysi antik davr shahar topografiyasini o'rganilishiga oid.....	416
<b>D.M.Turdiyeva</b>	
Dinshunoslik fanining yuzaga kelishi va rivojlanishi.....	421
<b>A.A.Aloxunov</b>	
Arxeologik tadqiqot metodiga doir .....	425
<b>A.A.Yo'ldashev</b>	
XX asrning 20-yillarida ozarbayjonda ta'lim olgan turkistonlik yoshlar tarixidan.....	431
<b>F.E.Atajanova</b>	
Xorazmda xalq maorifi tizimi rivojlanishi: muammolar, vazifalar va natijalar .....	436
<b>P.P.Norbo'tayev</b>	
Epos va din .....	440
<b>Z.B.Rahmonqulova, S.A.Hamrayev</b>	
Ernazar Maqsud o'g'li elchiligiga oid tadqiqotlar tahlili.....	446
<b>J.Sh.Museyibzoda</b>	
O'zbekiston tashqi siyosatidagi o'zgarishlar: xalqaro tashkilotlar orqali obro' va hamkorlikni mustahkamlashda faol ishtirok etish.....	453
<b>M.R.Umirzakova</b>	
Turkiston ASSRda soliqqa tortish masalalari.....	460

## TEMURNING HAYOTI VA SHAXSIY FAZILATLARI UILYAM DEVI HAMDA JOZEF UAYT TALQINIDA

## WILLIAM DAVY AND JOSEPH WHITE'S INTERPRETATION OF TIMUR'S LIFE AND PERSONAL QUALITIES

## ИНТЕРПРЕТАЦИЯ УИЛЬЯМ ДЭВИ И ДЖОЗЕФ УАЙТА ЖИЗНИ И ЛИЧНЫХ КАЧЕСТВ ТИМУРА

Usmonov Bahriiddin Ahmedovich<sup>1</sup>, Madalimov Dilmurod Abduvoxobovich<sup>2</sup><sup>1</sup>Usmonov Bahriiddin Ahmedovich

– Tarix fanlari doktori, dotsent

<sup>2</sup>Madalimov Dilmurod Abduvoxobovich

– Farg'ona davlat universiteti, O'zbekiston tarixi kafedrasida magistranti

**Annotatsiya**

Maqolada ingliz mualliflari U.Devi hamda J.Uayt tomonidan Amir Temurning hayoti va faoliyati, o'zining mustaqil davlatini tuzish yo'lidagi kurashlari va undan maqsad hamda "Temur tuzuklari" ning yaratilishiga oid ma'lumotlar keltirilgan. Ingliz mualliflarining bergan ma'lumotlari Sharq manbalariga solishtirilib qiyoslangan holda o'rganilgan hamda manbalarda berilgan ma'lumotlar tahlil qilingan. Amir Temurning olib borgan yurishlari o'z xalqining ozodligi va osoyishtaligi yo'lidagi maqsad ekanligi borasidagi demokratik fikrlar ingliz mualliflarining ma'lumotlarida qayd etilganligi maqolada yoritilgan. Shuningdek, "Temur tuzuklari" da berilgan ma'lumotlarning originallik darajasiga oid ingliz mualliflarining ma'lumotlari ham o'rin olgan.

**Аннотация**

Статья содержит сведения о жизни и деятельности Амира Тимура и его борьбе за создание своего независимого государства и создании «Законов Тимура» английскими авторами У.Дэви и Ж.Уайтом. Дана информация проведенного ими сопоставления с восточными источниками, а также проанализированы сведения, приведенные в источниках. В статье отмечено, что походы, проводимые Амиром Тимуром, были направлены на свободу и мир его страны. Также выявлено своеобразие информации, приведенной в «Законах Тимура», данная английскими авторами.

**Abstract**

The article contains information about the life and work of Amir Temur, his struggle for the creation of his independent state and the creation of "Temur tuzuklari" by the English authors W.Davy and J.White. The information given by him was compared to the Eastern sources, and the information given in the sources was analyzed. It was noted in the article that the campaigns conducted by Amir Temur were aimed at the freedom and peace of his country. Also, the originality of the information of "Temur tuzuklari" given by the English authors is shown.

**Kalit so'zlar:** Amir Temur, Ost-Indiya kompaniyasi, Bodlean kutubxonasi, Uilyam Devi, Jozef Uayt, Oksford, Klarendon nashriyoti, Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Peti De La Krua, Ibn Arabshoh, Abu Tolib al-Husayniy, Nizomiddin Shomiy, "Zafarnoma", Zahiriddin Muhammad Bobur, "Boburnoma" Muhammad Ashraf Buxoriy.

**Ключевые слова:** АмирТемур, компания Ост-Индия, библиотека имени Бодлея, Уильям Дэви, Джозеф Уайт, Оксфорд, Издательство Кларендон, Шарафуддин Али Язди, Миркханд, Пети Де Ла Круа, Ибн Арабшах, АбуТалибаль-Хусейни, Низамуддин Шами, «Зафарнама», Захириддин Мухаммад Бабур, «Бабурнаме», Мухаммад Ашраф Бухари.

**Key words:** Amir Temur, Ost-Indiya company, Bodlean Library, William Davy, Joseph White, Oxford, Klarendon publishing, Sharafuddin Ali Yazdi, Mirkhand, Peti De la Croix, Ibn Arabshah, Abu Talib al-Husseyini, Nizamuddin Shami, "Zafarnama", Zahiriddin Muhammad Babur, "Baburnama", Muhammad Ashraf Bukhari.

**KIRISH**

Davlatchiligimiz tarixida Amir Temur va temuriylar davrini o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlar bugungi kunda nafaqat yurtimiz tarixchilari, balki ko'plab mamlakatlar olimlarining diqqat markazida o'zining yangi, hali tadqiq etilmagan qirralari bilan namoyon bo'lmoqda. Davlatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng bu davrni yoritishga bo'lgan tadqiqotlar va izlanishlar ko'lamini yanada kengayitib bordi. Bu borada davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan yaratib berilayotgan shart-sharoitlar tadqiqotchilar uchun erkin ijod qilish va tariximizning unutilgan qirralarini yangitdan ochishga imkon yaratmoqda.

XX asr dunyo tarixshunosligida Amir Temur va temuriylar davri tarixini o'rganish masalasi juda katta tadqiqot maydonini shakllantiradi oldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu o'rinda aytib o'tish

## TARIX

kerakki, o'rta asrlarda horij tarixchilari, xususan ingliz tarixchilari tomonidan bu davrni yoritishga bo'lgan yondashuv bugungi tadqiqotlar doirasida kam o'rganilgan jihatlardan biridir. Shundan kelib chiqqan holda biz XVIII asr ingliz tadqiqotchilarining Amir Temur va temuriy hukmdorlar haqida qanday ma'lumotlarni jamoatchilikka taqdim eta olganligini o'rganishga qaror qildik.

Ma'lumki, Buyuk Britaniya hukumati XVIII asr o'rtalaridan boshlab Hindistonni bosib olishga kirishgan va XIX asr o'rtalariga kelib bu davlatni o'z mustamlakasiga aylantirgan edi. Inglizlarning bu hududdagi harakatlarini amalga oshiruvchi tashkilot bo'lgan Ost-Indiya (Sharqiy Hindiston) kompaniyasi o'lkadagi barcha boyliklarni, jumladan, kutubxonalaridagi yozma manbalar va qo'lyozmalarni ham Britaniyaga olib ketishga muvaffaq bo'lgan. Mana shu to'plangan qo'lyozmalar orasida Bodlean kutubxonasi fondlarida saqlanib kelayotgan Amir Temur va temuriylar tarixiga oid ma'lumotlarning borligi va ulardan ayrimlarini ingliz tadqiqotchilari tomonidan nashr etilganligi dunyo tadqiqotchilarining temuriylar tarixiga katta qiziqish bilan qaraganligini namoyon etadi. Quyida Bodlean kutubxonasidan olingan qo'lyozmalarni ingliz tiliga o'girib, shu asosda maqola tayyorlagan XVIII asr mualliflari U.Deyvi hamda J.Uayt tadqiqotlarini e'tiboringizga havola etamiz [1:5].

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

U.Deyvi hamda J.Uilayt tarjimasi asosida tayyorlangan ushbu kitob doktor Uilyam Hanter buyurtmasi asosida yaratilgan. Bu haqda kitobning kirish qismida mualliflar qisqacha izoh berib o'tgan [1:9]. Shu o'rinda asar mualliflari haqida qisqacha to'xtalib o'tish lozim. Uilyam Deyvi 1743-1826 yillarda yashab o'tgan ingliz ruhoniysi. Bizdagi to'plangan ma'lumotlarga ko'ra, uzoq yillar ilohiyot, xristian dini ta'limoti bilan shug'ullangan, shuningdek, ilohiyot ilmini o'rganish jarayonida Sharq qo'lyozmalari va manbalari bilan ham tanishgan. Bu esa unga temuriylar tarixi bo'yicha tadqiqot olib borish imkonini bergan [6:2].

Mualliflardan yana biri Jozef Uilayt 1745-1814 yillarda yashab o'tgan ingliz tadqiqotchisi. U yoshligida islom tarixi bilan qiziqqan, shuningdek, arab tilini qunt bilan o'rgangan va o'z davrining yetuk arabshunoslaridan biriga aylangan. Uning arabshunoslikka oid bo'lgan tadqiqotlarida islom falsafasini o'rganish asosiy o'rinni egallagan. Muallifning arabshunoslik tadqiqotlari uni temuriylar davri tarixi bilan ham tanishtirgan [6:1 b].

1783-yilda Oksforddagi Klarendon nashriyotida chop etilgan ushbu kitobda Amir Temurning shaxsiy fazilatlarini, markazlashgan davlat tuzish borasida olib borgan harbiy yurishlari, uning hayoti va faoliyatiga oid Sharq mualliflarining yozgan asarlari hamda Hindistonda hukmronlik qilgan Amir Temurning avlodlari haqida qimmatli ma'lumotlar o'rin olgan. Ushbu ma'lumotlarni Sharq mualliflarining asarlariga qiyosan o'rganish asosida, ingliz mualliflarining Amir Temur va temuriylar tarixini o'rganishga qay darajada qiziqqanligini ko'rib chiqish mumkin bo'ladi.

"TEMURning mashhur nomi, - deb yozadi mualliflar, - Yevropaga ilk bor an'analar bo'yicha ma'lum bo'lgan: uning qahramonlik harakatlari haligacha Ali Yazdiy yozgan tarixni ko'rmagan, D'Herbelot va Volterning hikoyalarini o'rganmagan ko'pchilik tomonidan olqishlanadi" [6:3]. Kitobdagi ma'lumotlar ushbu jumalalar bilan boshlanib, Amir Temurning shaxsiy fazilatlarini, harbiy yurishlarining maqsadi, u o'z maqsadlarini amalga oshirishda kimlardan foydalanganligiga oid ma'lumotlar bilan to'ldirib boriladi. Asarni o'rganish jarayonida muallif Sharq qo'lyozmalaridan ancha xabardor bo'lganligiga guvoh bo'lish mumkin. Quyidagi fikrlar buni asoslashga imkon beradi: *"Bu buyuk fathning hayoti o'g'li yoki nabirasi amriga bo'ysunib asli fors bo'lgan Ali Yazdiy tomonidan yozilgan. Petis de la Croix tomonidan frantsuz tiliga va bu tarjimadan ingliz tiliga o'girigan bu asar undagi gulli iboralar bilan emas, balki to'plangan asl materiallar uchun ham qadrlidir. Temur vafotidan keyin o'ttiz oltinchi yili uning hayoti suriyalik Ahmad Ibn Arabshoh tomonidan arab tilida yozilgan. Bu muallif ham xuddi avvalgidek jonli va ta'riflovchi qalamga ega edi: Nafislikda nimani yutsa, haqiqat va ochiqlikda shuni yutqazadi; chunki uning ijodining har bir sahifasida tarixchini uyaltiradigan o'sha milliy xurofotlar, g'alaba qozongan dushmanga nisbatan nafrat sezilishi mumkin edi"* [1:14]. Bu jumalarga qiyosan Ibn Arabshoh o'z asarida Amir Temur haqida qanday fikr bildirganligiga e'tibor qaratsak. *"Shon shuhratning uzoqligi unga yetishishdan seni noumid qilmasin, chunki u(shon-shuhrat) ning peshma-peshligiyu mashqi bor. Sen ulug'vorligini ko'rib turgan kanap quvurma-quvur ko'tarilib o'sib boraveradi"* [3:69]

Demak, bundan ko'rinadiki, asar qo'lyozma holatidan frantsuz tiliga, so'ng ingliz tiliga tarjima qilingan. Lekin, kitobdagi barcha ma'lumotlar to'liq frantsuz tilidan ingliz tiliga o'g'irilgani

haqidagi ma'lumot yetarlicha asosga ega emas. Chunki, yuqorida aytib o'tilgan muallif J.Uilayt arabshunos sifatida qo'lyozmalarga mustaqil yondashganligiga ham ishonch hosil qilishimiz mumkin. Asardagi ma'lumotlarni o'rganish jarayonida W.Deyvi hamda J.Uayt shakllantirgan tarjima ingliz yozuvchisi Jon Kleland tomonidan maktub tarzida ingliz ilohiyotchisi va yozuvchisi Alex Popga taqdim etilganligiga ham guvoh bo'lish mumkin.

Asarda keltirilgan quyidagi jumlar Yevropalik, xususan ingliz tarixchilarining Amir Temur haqidagi qarashlari va fikrlari bir qator ijobiy bo'lganligiga ham guvoh bo'lish mumkin. *"Qiziqishlariga mos kelmasada qasos olishdan o'zini tiyganini, qul bo'lishga tayyor bo'lgan xalqi va fuqarolarining haq-huquqlarini ta'minlaganini o'qiganimizda, u insonparvar va liberal fazilatlariga ega ekanligiga shubha qilinmaydi. U o'zining imperiyasining go'dak dunyosi kabi anarxiyadan hamjihatlik bilan bepoyon o'sib borayotganini ko'rgach, o'zi yaratgan hukmronlikning har bir qismiga tartib-intizom tarqatib, uni donolik, adolat va xayrixohlik bilan boshqaradi. Shuning uchun uning maqsadlarini ayblashga sabablar ozroq, aksincha u tomonidan cheklangan maqbul bo'lgan o'zgarishlarni tan olish afzal"* [1:15].

Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida ham huddi shunga o'xshash jumalarni uchratish mumkin: *"Va aning davlatmand zotikim, mazhari lutfi Ilohiy erdi, Shafqat va xayrdin o'zga ish muborak ko'ngliga kechmas erdi. Va ul holda, agarchi qahr va siyosat qilur erdi, nechukkim ul so'zlar kelgusi turur, ul qahr va g'azabpodshohlik jihatidin va mamlakat zabti uchun erdi"* [2:14].

Mualliflarning bu fikrlari tarixiylik va xolisona yondashuv jihatidan bir oz mulohaza yuritishni talab qiladi. Demak, bundan ko'rinadiki ingliz muarrixlari Amir Temur olib borgan yurishlarni bosqinchilik yurishi deb emas, balki, o'sha davrdagi siyosiy vaziyat hamda shart-sharoitlar talabidan kelib chiqib amalga oshirilganligi hamda o'z xalqining erki va ozodligi yo'lida olib borilgan kurash sifatida talqin etganliklari juda katta e'tirofga loyiqdir. Chunki XX asr ikkinchi yarmida Amir Temur shaxsiga bir tomonlama yondashib, uning hayoti va tarixini qora bo'yoqlar bilan namoyish etgan sovet jamiyatidagi ilg'or "tadqiqotchilari"ning "buyuk xizmatlari" yuqorida bildirilgan fikrlar bilan solishtirganda, bir necha ming yillik tariximiz faqat buzib ko'rsatilganligini yaqqol anglashimiz mumkin bo'ladi.

Ushbu kitobning yana bir qimmatli jihati shundaki, muallif qo'lyozmani tarjima qilish jarayonida harbiy san'atning juda ko'p atamalarini kuzatganligi, tatar(turkiy) tildagi juda ko'p iboralar Yevropada hech bir lug'atda tushuntirilmaganligi va bu iboralarni ko'rib chiqishga birinchi bo'lib u muyassar bo'layotganidan faxrlanganini yozib qoldirgani bilan diqqatga sazovordir. Shuningdek kitobni nashrga tayyorlagan muallif W. Devi bilan J. Uaytni "bu tilni o'zlashtirishga ko'maklashgani uchun "Lug'at" va "Grammatika" ga qiyoshlagani ham yevropaliklarning Sharq qo'lyozmalari va tillariga qay darajada qiziqqanligini ham ko'rsatadi.

*"Asarga va uning muharririga muhim ahamiyatga ega bo'lgan qimmatli fors qo'lyozmasini qo'llagani uchun do'stona xushmuomalalik bilan qilgan yaxshiliklari uchun C. V. BOUGHTON Rousega minnatdorchilik bildirmasdan turib ushbu kirish so'zlarini tugata olmayman"* [1:21]. Ushbu jumlar orqali kitobning yaralishiga sababchi bo'lgan yana bir tarixiy shaxsga duch kelish mumkin. Charlz Uilyam Rouz Boughton (1747-yil dekabr - 1821-yil 26-fevral) Hindistonda [Sharqiy Hindiston kompaniyasining ma'muri va keyinchalik Britaniya jamoatlar palatasi](#) a'zosi bo'lgan. Bu shaxsning asar yaratilishida qay darajada o'rni bo'lganligini quyidagi jumalarda ham ko'rish mumkin. *"Janob Rouz menga o'z asarining tarjima qilingan ba'zi qismlarini, shuningdek, asl fors tilini ko'rsatdi va ko'pgina parchalarning ulug'vorligi va go'zalligi meni hayratda qoldirdi"* [1:22]. Ushbu manbani o'rganish davomida muallifning juda ko'plab Sharq manbalari va qo'lyozmalaridan xabardor bo'lganligini e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Muallif tomonidan bildirilgan fikrlar tadqiqotchini yanada yangi ma'lumotlar bazasiga yetaklab borishi shubhasizdir. Bunga misol tariqasida quyidagi jumalarni keltirib o'tish mumkin. *"Shuning uchun men uni ushbu nashrda "Yusuf va Zullayho" namunasiga ilova qilib qo'ydim: faqat o'sha fikr va ifoda go'zalligi uchun emas, har ikkisida ham hayratga soladigan narsa bor; lekin Temur ijodi singari, bu ham fors tilini bilish yevropalik olimga nafaqat o'z tilidagi asarida qimmatli bo'lgan narsalarni, balki shanskrit, mo'g'ul va boshqa hali kashf etilmagan uzoq tillar xazinalarini ham ko'rsatishiga dalil bo'lib xizmat qiladi"* [1:23].

Shu o'rinda yana bir mulohaza, muallif faqat Amir Temurning hayoti va faoliyatiga, harbiy yurishlari va davlat boshqaruviga e'tibor qaratib qolmagan. U o'sha davr tarixchilarining voqelikni yoritishga bo'lgan munosabati, qanday maqsad bilan yondashib asar yaratayotganligi haqida ham

## TARIX

xolisona fikrlar bildirgan. *“Bu tarixga ko‘ra , bu ma‘lumotlarning bahosini kamaytirishdan boshqa imkoni bo‘lmagan ba‘zi odamlar, darhaqiqat uning bosh muallifi o‘z illatlarini o‘quvchi ko‘zidan puxtalik bilan yashirgan va uning fazilatlarini haqida aniqroq fikr yuritganligiga qisman e‘tiroz bildirishgan. Ammo, bu keskin fikrlarni faqat uning yozganlari bilan tanish bo‘lmaganlar aytishi yoki ommaga yoyishi mumkin”* [1:14].

Asarda keltirilgan qator yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, mualliflar Amir Temur va temuriylar tarixini yoritib beruvchi asarlarni avval tanqidiy jihatdan o‘rganib chiqishgan va “Temur tuzuklari” (asarda Temurning o‘zi yozgan “Tarixi” deb ko‘rsatilgan)ning Mir Abu Tolib Husayniy al-Ariziy at-Turbatiy tomonidan fors tiliga o‘girilgan haqiqiy nushasini o‘ta sinchikovlik bilan tadqiq etishgan. Bu holat mualliflarga Amir temur va temuriylar tarixini yoritib beruvchi ayrim asarlarda kamchiliklar va noto‘g‘ri yondashuvlar borligini ko‘rsata olishga imkon bergan. *“Ammo Temurning zabt etishlari asosan boshqa sabablarga ko‘ra yuzaga kelgan: uning yashagan zamoni va yurtining odob-axloqi, buyukligiga hasad qilib, o‘zini do‘st deb bilgan podshohlarning hiyonati bilan ham. Uning jasorati haqida gapirishning hojati yo‘q chunki, uning muvaffaqiyatli urushlari, qayg‘udagi qat‘iyati va qarori, g‘alabadan keyin tinch tabiati va mo‘tadil xulq-atvori haqida kim eshitmagan ahir?”* [1:15].

Nizomiddin Shomiy o‘zining “Zafarnoma” asarida ushbu jumalarga monand quyidagi fikrlarni bayon etgan: *“Kimda-kim oldindan hushyorlik shartlariga riyoya qilmasa, ehtiyotkorlik chorasiga beparvolik bilan qarab, yovuz niyatli dushmaniga e‘timod qilmasa, o‘z halokatiga o‘zi intilgan va o‘z davlatining zavoliga o‘zi harakat qilgan bo‘ladi. Shunga binoan Amir Sohbiqironning iqboli uni ushbu fikrga olib keldiki, u bu ish ustida chuqur o‘ylab, o‘z ishida g‘aflatu beparvolikka yo‘l qo‘ymadi, yovuz niyatli dushman undan ustun kelishidan ilgari chorayu tadbir maqomiga qadam qo‘ydi”* [1:52]

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bu fikrlardan anglash mumkinki, Amir Temur o‘z zamonasining tartib-qoidalarini qattiq hurmat qilgan, vaziyat taqozosi tufayli yurishlari amalga oshirgan, atrofidagi ittifoqchi bo‘lib ko‘ringan hamda g‘alabalaridan nafratlangan dushmanlarining hasadlarini payqagan, o‘ziga xos tabiati va xulq atvori bilan atrofida qilargalarga o‘rnak bo‘la olgan.

Shuningdek, asarda Sharafiddin Ali Yazdiy va Mirxond faoliyatiga ham alohida e‘tibor qaratilib, ularning Amir Temur haqidagi fikrlarida xolislik yetishmaydi deb ko‘rsatilgan. Bu fikrlarni quyidagi parchadan ham anglash mumkin bo‘ladi. *“...Men o‘qigan birgina “Temur tarixi” (o‘zi yozganlari bundan mustasno) Shurruf uddin Alli Yezzudiy va Mirxondning hikoyalaridir: ikkinchisi “Ruzut ul Suffau”da. To‘g‘ri bu mualliflarning hech biri, yodimdaki, na “Ko‘rsatma”ga, na TEMURning “Tarix”iga (yoki “Izohlar”iga) e‘tibor bermay yozgan. Alli Yezzudiy aytadiki, Temurga doimo bir qancha bilimdon va qobiliyatli kishilar hamroh bo‘lgan, ularning yagona burchi harbiy va fuqarolik tekshiruvlarining o‘ziga xos tarixiy jurnalini yuritish edi; ularga eng ahamiyatsiz faktlarni bayon qilishda haqiqatga qat‘iy rioya qilish buyurilganligi va bundan keyin ham imperatorning o‘zi xatti- harakatlariga nisbatan qat‘iy xolislikka rioya qilishlari haqida ko‘rsatma berilgan”*. Bundan ko‘rinadiki ingliz mualliflari ham voqea hodisalar va Amir Temur bilan bog‘liq tarixiy faktlarga xolisona baho berishga harakat qilgan.

Yana bir e‘tiborli jihat shuki, asarda Zahiriddin Muhammad Bobur, uning Hindistondagi hukmronligi, vorislari Humoyun va Akbar haqidagi ma‘lumotlar, eng muhimi Bobur tomonidan yozilgan hamda o‘zining hayoti tasvirlangan “Tarix” (“Boburnoma” nazarda tutilgan) deb nomlangan asari haqidagi ma‘lumotlarning keltirib o‘tilishidir. *“Mening kuzatishlarim ostida qolgan TIMUR hayoti va tarixiga eng kam o‘xshash asar bu Sulton Boburning o‘zi yozgan “Tarixi” (yoki sharhlari)dir. Bobur beshinchi avlod, Temurdan kelib chiqqan; u Umarning o‘g‘li, Abu Saidning o‘g‘li, Muhammadning o‘g‘li, Meraun Shoahning o‘g‘li, TIMURning o‘g‘li edi. TIMUR vafotidan Bobur tug‘ilishigacha taxminan sakson yil o‘tdi. Bobur o‘n ikkinchi yoshda va hijratning 899-yilida Farg‘ona podsholigida otasining taxtiga o‘tirdi”* [1:30]. Garchi, ayrim chalkashliklar bo‘lsa-da, lekin manbada berilgan ma‘lumotlar muallifning o‘sha davr tarixiga oid muhim va original manbalar bilan tanish bo‘lganidan va undan foydalanib ushbu ma‘lumotlarni asarga joylaganidan dalolat beradi.

Zahiriddin Muhammad Bobur esa o‘zining taxtga o‘tirishi tarixi haqida quyidagicha bayon qilgan: *“Ushbu yili dushanba kuni, ramazon oyining to‘rtinchisida Umarshayx mirzo jordan kabutarlar va kabutarxonasi bilan uchib, halok bo‘ldi. O‘ttiz to‘qqiz yoshda edi...Umarshayx mirzo bilan o‘sha voqea yuz berganda men Andijonda chorbog‘da edim. Seshanba kuni, ramazon oyining*

beshinchisida bu xabar Andijonga yetib keldi. Iztirob bilan o'tlanib, yonimdagi navkar va savdarlarim bilan qo'rg'onga yo'l oldim" [5:37].

### XULOSA

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, U.Devi hamda J.Uayt tomonidan berilgan ma'lumotlar O'rta Osiyolik olim Abu Tolib al-Husayniy tomonidan tayyorlangan forscha nashrdan olingan bo'lib, bu ma'lumotlarni shu paytga qadar nashr etilgan "Temur tuzuklari" ning barcha nusxalarida berilgan ma'lumotlardan ancha mukammalroqdir. Bunday to'xtamga kelishimizga sabab, Hindiston hukmdori Shohjahon ko'rsatmasi bilan Muhammad Ashraf Buxoriy tomonidan "Tuzuki Temuriy" ("Temur tuzuklari") ning forscha tarjimai Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari bilan solishtirilgan holda tahrir etilgan nusxasi va shu nusxa asosida dunyoning ko'plab mamlakatlarida chop etilgan nashrlar bir qator o'zgarishlarga uchrab, Amir Temur tarixi bilan bog'liq voqealarni yoritishda chalkashliklarni vujudga keltirganligidir. Ingliz tadqiqotchilarining Amir Temur tarixi bilan bog'liq ma'lumotlarga bu darajada sinchikovlik bilan yondashganligi o'sha davrda temuriylar davlati tarixini o'rganishga G'arb olimlari ham katta qiziqish bildirganligining alohida na'munasi deb ko'rsatishimiz mumkin. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda Amir Temur va temuriylar tarixi bilan bog'liq voqealarni yoritishda nafaqat Sharq manbalari (arab va fors tilidagi asarlar) balki, G'arb manbalining, jumladan, ingliz manbalarining ham o'rni o'ziga xosdir. Mazkur manbalarni boshqa tillarda chop etilgan asarlar bilan qiyoslab tanqidiy o'rganish ushbu davr tarixini yoritishda yanada mukammal tarixni yaratish imkonini beradi, deb hisoblaymiz.

### ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. J. White. Institutes, political and military, by the great Timour written... The whole work published with a preface, indexes. Oxford, 1783. – 15 p.
2. Шарафиддин Али Йаздий. Зафарнома. /Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А.Ахмад ва Ҳ.Бобобеков, – Т.: Шарқ, 1997.
3. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. / Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳларни У.Уватов тайёрлаган. К. I. – Т.:Меҳнат, 1992.
4. Низомиддин Шомий. Зафарнома /Форс тилидан ўгирувчи – Ю. Ҳакимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва маъсул муҳаррир – А. Ўринбоев, изоҳлар ва луғатларни тузувчи – Ҳ. Кароматов (жуғрофий номлар изоҳи – О. Бўриевники), Ҳофизу Абруни «Зафарнома»га ёзган «Зайл»и («Илова»)ни форсийдан ўгирувчи ва изоҳларини тузувчи – О. Бўриев. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 52 б
5. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома/ ҳозирги ўзбек тилига Ваҳоб Раҳмон ва Каромат Муллаҳўжаева табдил қилган, Порсо Шамсиев, Содиқ Мирзаев, Эйжи Мано ва Саидбек Ҳасанов нашрга тайёрлаган. Масъул муҳаррир – Маҳмуд Саъдий, махсус муҳаррир – Нажмиддин Комилов. Ўқитувчи НМИУ, 2008. – 37 б.
6. Wikipedia. <https://en.wikipedia.org/wiki/>